



# **O'ZBEK BOLALAR FOLKLORINI TO'PLASH VA O'RGANISH VA NASHR QILISH MUAMMOLARI**

Xalqaro ilmiy – amaliy anjuman  
**MATERIALLARI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
SPORT FAOLIYATI VA PEDAGOGIKA FAKULTETI  
BOSHLANG‘ICH TA‘LIM KAFEDRASI**

**“O‘ZBEK BOLALAR FOLKLORINI TO‘PLASH VA O‘RGANISH VA  
NASHR QILISH MUAMMOLARI”**

**XALQARO ILMIIY-AMALIIY ANJUMAN  
MATERIALLARI**

**«ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ИЗУЧЕНИЯ И ПУБЛИКАЦИИ  
УЗБЕКСКОГО ДЕТСКОГО ФОЛЬКЛОРА»**

**МАТЕРИАЛЫ  
НАУЧНО - ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

**“PROBLEMS OF COLLECTION, STUDY AND  
PUBLISHING OF UZBEK CHILDREN'S FOLKLORE”**

**MATERIALS  
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
CONFERENCE**

**2023-yil 8-9-noyabr**

**BUXORO – 2023**

## MUNDARIJA

O.X.Xamidov. KIRISH SO‘ZI.....	3
O.X.Xamidov. O‘ZBEK BOLALAR FOLKLORINI TO‘PLASH VA O‘RGANISHning NAZARIY ASOSLARI .....	4
<b>1–SEKTOR: O‘ZBEK BOLALAR FOLKLORINING GENEZISI, RIVOJLANISHI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....</b>	<b>5</b>
Дармоной Ўраева Саидахмедовна. БОЛАЛАРНИ АВАЙЛОВЧИ МАРОСИМЛАР ФОЛЬКЛОРИ ТИЗИМИ ВА ТАРКИБИ .....	5
Д.З.Ражабов. ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИДА ДИСПОЗИЦИЯ ВА КОМПОЗИЦИЯНИ БЕЛГИЛАШ ТАМОЙИЛЛАРИ .....	8
Қаҳрамон Раҳимбоевич Тўхсанов, Алижон Рўзиқулович Ҳамроев. “МАСНАВИЙ”ДАГИ ХАЛҚ ҲИКОЯЛАРИ .....	13
Sharipova Laylo Frunzeyevna. XX ASR O‘ZBEK SHE‘RIYATIDA ALLA STILIZATSIYASI.....	16
Sabitova Tadjixon. TURKIY DOSTONLARNING JANR XUSUSIYATI .....	20
Mardonova Sarvinoz Oripovna. TILSHUNOSLIKDA SO‘ZLARNING “ LEKSIK - SEMANTIK”, “ MORFOLOGIK – SINTAKTIK ” USULLAR BILAN SO‘Z YASALISHI.....	23
Mardanov Rahim G‘aybulla o‘g‘li. NAVOIY LIRIKASIDA TASAVVUFYIY OBRAZLAR.....	29
Mamatqulova Mehrnoz. “ZUMRAD AND QIMMAT” MYRESS BRIGGS TYPE INDICATOR ANALIZE.....	32
Zumrad Masharipova. ZEBO MIRZO IJODIDA OBRAZLAR KO‘LAMI.....	34
O‘rinova Maftuna No‘mon qizi. BOLALAR FOLKLORINING MAZMUNI TO‘G‘RISIDA.....	37
<b>2–SEKTOR: BOSHLANG‘ICH VA MAKTABGACHA TA‘LIMDA O‘ZBEK BOLALAR FOLKLORI NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI.....</b>	<b>40</b>
To‘xtasin Rajabov Ibodovich. UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARI MUSIQA DARSIDA BUXORO BOLALAR FOLKLOR QO‘SHIQLARINI O‘RGATISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI .....	40
Husenova Aziza Sharipovna, Rahmatova Gulasal Nasillo qizi. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA ERTAK O‘RGATISHNING MA‘NAVIY- AMALIY AHAMIYATI .....	44
Nurova Yulduz Ubaydullayevna. O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA NUMERATIV SO‘ZLARNING ETNOLINGVISTIKASI .....	46
Жўраева Мунис Юнусовна. БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМДАЎЗБЕК ХАЛҚ ТОПИШМОҚЛАРИНИНГ ПЕДАГОГИК МОҲИЯТИ.....	49
Ashurova Marhabo Sayfulloyevna. HUSAYN VOIZ KOSHIFY ASARLARIDA AXLOQIY SIFATATLARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI.....	53
Ashurova Marhabo Sayfulloyevna. HUSAYN VOIZ KOSHIFY IJODIDA USTOZ-SHOGIRD MUNOSABATLARINING FAZILATLI JIHLTLARI.....	56
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi. MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARINING HAMKORLIKDAGI FAOLIYATI – JAMOADA ISHLASH KO‘NIKMALARINI FOLKLOR NAMUNALARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH.....	59
To‘ymurodova Dilshoda Bobomurod qizi. MAKTABGACHA TA‘LIMDA FOLKLOR NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	62
<b>3–SEKTOR: O‘ZBEK XALQ MILLIY O‘YINLARI VA FOLKLORINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHLTLARI .....</b>	<b>65</b>
Xudayqulova Latifa Avazovna. MAROSIMLARDA MILLIY O‘YINLARNING O‘RNI.....	65
Safarova Nigora Oxunjonovna. O‘ZBEK BOLALAR O‘YINLARINING AXLOQIY-TARBIYAVIY VAZIFALARI .....	67
Shamsiya Egamberdiyeva Mamajonovna. O‘ZBEK ALLASI VA TURK NINNISI: UYG‘UNLIK VA ALOHIDALILIK .....	70
Xalilova Ruxsora Raupovna. VIRTUAL MULOQOTDA XALQONA RUHNING IFODALANISHI ...	74
Sharipova Maxbuba Baxshilloevna. “ALPOMISH” DOSTONIDA IFODA ETILGAN MAROSIMLARDA ARXAIK EPOS XUSUSIYATLARI TALQINI.....	76
Xakimova Maxsudaxon G‘ofurjon qizi. ALPOMISH DOSTONI EPOSINING ASOSIY TENDENSIYALARI .....	79

Internet muloqotlar bu tarzda kuzatilganda xalq makollaridan foydalanishi soʻz boyligini oshirishga xizmat qilishi va shu bilan birga oʻzbek xalq milliy urf-odat va anʼanalarda ularning milliy xususiyatlarini saqlashga doim harakat qilib kelingan. Oʻzbekona muloqot madaniyatida koʻproq jamoaviy munosabatlarda, marosim va anʼanalarda saqlanib kelayotganligi, buni insonlarning milliy-etnik qiyofasida, odob-axloq normalarida aks ekanligini koʻrishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 110 б.
2. Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 198-204.
3. Почепцов Г.Г. О месте прагматического элемента в лингвистическом описании // Прагматические и семантические аспекты синтаксиса. – Калинин: КГУ, 1985. – С. 12-18.
4. Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – Москва: Наука, 1971. – С. 95.
5. Соссюр Ф. Труды по языкознанию. – Москва: Прогресс, 1977. – С. 52.
6. Стратен В.В. Аргю и арготизм. – В сб.: «Труды комиссии по русскому языку». – Ленинград, 1931. – С. 91-98

## “ALPOMISH” DOSTONIDA IFODA ETILGAN MAROSIMLARDA ARXAİK EPOS XUSUSIYATLARI TALQINI

Sharipova Maxbuba Baxshilloevna  
Buxoro davlat universiteti  
Maktabgacha taʼlim kafedrası oʻqituvchisi  
maxbuba013@gmail.com

**Annotatsiya:** Maqolada marosim va doston munosabatlari, marosimlarning arxaik- badiiy ifodasi, uning badiiy-estetik va poetik tafakkuri jo boʻlgan bu lirik merosining badiiy tili nuqtai nazaridan oʻrganish xalqimizning milliy madaniyati, yashash tarzi va urf odatlari, qadriyatlarini chuqur anglashda munosib manba sifatida xizmat qilib kelayotgani xususida fikr yuritilgan.

**Kalit soʻzlar:** xalq dostonlari, folklor, folklorshunoslik, ishq-muhabbat, milliy madaniyat, marosim, urf-odat, marosim va doston munosabatlari.

**Аннотация:** В статье исследование соотношения обряда и эпоса, архаико-художественного выражения обряда, его художественно-эстетического и поэтического мышления с точки зрения художественного языка этого лирического наследия является достойным источником для глубокого понимания национальной культуры, быта и традиций, ценностей нашего народа. Считается, что это послужило

**Ключевые слова:** народный эпос, фольклор, фольклористика, любовь, национальная культура, обряд, традиция, соотношение обряда и эпоса.

**Abstract:** In the article, the study of the relationship between ritual and epic, the archaic-artistic expression of the ritual, its artistic, aesthetic and poetic thinking from the point of view of the artistic language of this lyrical heritage is a worthy source for a deep understanding of the national culture, life and traditions, the values of our people. It is believed that what did it do

**Key words:** folk epic, folklore, folkloristics, love, national culture, ritual, tradition, relationship between ritual and epic.

Arxaik eposlarda arxaik marosimlar ifodasi alohida oʻrin tutadi. “Alpomish” dosonida arxaik eposga xos ayrim belgilar mavjudligi ayricha eʼtiborni tortadi. Bular esa quyidagilarda namoyon boʻladi:

**Birinchidan**, bosh qahramon – Alpomishning mo'jizaviy tug'ilishi va sehrli qobiliyatlar egasi qilib tasvirlanishi. Bunda uning sehrli qobiliyati (o'tda yonmasligi, eranlar homiyligida yurishi)ning ta'kidlanishi qahramonlik fazilatlarini bo'rttirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

“Alpomish” dostonida farzandsiz juftlik (aka-uka Boybo'ri va Boysari)ning pirlarga, aziz avliyolarga sig'inib, mo'jizaviy tarzda farzandli bo'lishi, epos qahramonlari (Alpomish va Qaldirg'ochu Barchinning) mo'jizaviy tug'ilishi kabi motivlar qadimiy va an'anaviy bo'lib, “Kitobi Dada Qo'rquq”, “Bamsi Bayrak” kabi turkiy mumtoz epos namunalarida ham uchraydi. Bu keng tarqalgan motivlar qahramonning birinchi qahramonligini el ichida namoyish etishi orqali keyingi yana bir nomini olishi motiviga ulanadi. Bunda qahramonga nom beruvchi kishi nuroniy, oqsoqol, darvesh ko'rinishida tasvirlanadi. U orqali ko'pincha xalqning islomgacha bo'lgan e'tiqodlari esga solinadi. Kelt an'analarida ham ruhoniylarga o'xshash shaxs ism qo'yish marosimini bajaradi.

**Ikkinchidan**, mumtoz eposda bo'lgani kabi qahramonning ko'pincha maxsus qurollarga egalik qilishi va undan foydalanishi motivi ham muhim o'rin tutadi. Bu jihatdan Alpomishning bobosidan qolgan 14 botmonlik parli yoyga egalik qilishi motivi e'tiborni tortadi. Shu qurol orqali Alpomish nom qozonadi, u orqali elu yurt orasida Hakimbek ismi Alpomish ismiga o'zgartiriladi, uning tufayli qahramonlik fazilati ochila boradi.

**Uchinchidan**, “Alpomish” dostonida bir qator qadimiy sehrli marosim motivlari ham uchraydiki, ular vositasida bu qahramonlik eposining mumtoz ruhi his etiladi. Jumladan, unda jodugarlik, shomonizm qoldiqlari (Suxxayl kampir, Bodom bikach singari salbiy timsollar orqali) qoralanadi. Ayniqsa, Suxxayl kampir bosh qahramonga har tomonlama dushmanlik qilishi eskilikning yangilikka zid qo'yilishi mantiqidan kelib chiqqan.

Dostonda Suxxayl kampir va uning yeb to'yimas, vajohatli, devmisol o'g'illari Alpomishga epik raqib sifatida keltirilgan ekan, uning bu dushman kuchlari bilan ochiqchasiga to'qnashuvi, kurashishi va ularni mag'lub etishi motivi asosida inson kuchining har qanday sehr-jodu kuch-qudratidan ustunligini ta'kidlash g'oyasi yotadi.

**To'rtinchidan**, Suxxayl va uning o'g'illari o'limi, makr-hiyla va fitnalarining barbod bo'lishi aslida har qanday sehrli (magik) marosimlarning zaifligini ochib berishga yordam beradi.

**Beshinchidan**, “Alpomish” dostoni badiiy strukturasi qabilaviy tuzum, urug'chilik tushunchalari xarakterli idealizatsiyalangan shaklda qayta ishlangan.

**Oltinchidan**, “Alpomish” dostonidagi Suxxayl kampirning Qalmoqshohga va o'g'illariga, Bodom bikachning esa Ultontozga yo'l ko'rsatib, maslahatgo'ylik qilishi motivi qadimgi eposlar badiiy strukturasi xos “dono ona” obrazini aks ettiradi.

**Yettinchidan**, qahramonga xizmat qiladigan marosimlar tasvirining keltirilishi. Bunga dostonda keltirilgan qahramonning tug'ilishi, uylanishi bilan bog'liq qator marosimlar tasvirini misol qilish mumkin. Eng muhimi, bunda uni o'tkazuvchilarning o'sha marosim haqidagi bilimiga egaligini tasvirlash o'zgacha maqomga ega. Bunda, ayniqsa, o'sha marosimga oid narsalar (oyna, qon, sho'rva, olma singari marosim atributlari) tasviri ham alohida e'tiborni tortadigan jihatlardan biridir.

**Sakkizinchidan**, dostonda Alpomishni oti Boychiborning qutqaruvi voqeasi xalqning ot totemiga ishonchini o'zida badiiy ifoda etadi. Bunda Alpomishning asirga olinishi hamda oti ko'magida chohdan ozodlikka chiqishi voqealari yana bir bor “Kitobi Dada Qo'rquq” sujetini yodga soladi.

J.Eshonqulov arxaik epos bilan marosim strukturasi o'zaro uyg'un kelishini asoslab, buni “Alpomish” dostoni tahlili misolida quyidagicha ko'rsatib o'tadi: “Shomonning shajarasi. Uning tanlanishi, homiy ruhlar ko'magida bo'lishi, o'zga dunyoga safar, yovuz ruhlar jangi, o'zga qiyofaga ega bo'lishi bu shomonlik marosimiga xos xususiyatdir. Arxaik, jumladan, “Alpomish” eposida ham shajaraga alohida urg'u berilishi, Hakimbekning tug'ilishi va doimo pirlar ko'magida bo'lishi, qahramonliklar namoyish etishi, safarga o'tlanishi, yovuzlikka (yovuz ruhlarga) qarshi kurashi, yetti yillik zindon, ya'ni ramziy o'liklik holatidan so'ng qayta tirilib chiqib, Qultoy

qiyofasiga kirishi struktural jihatdan shomonlik marosimi bilan aynan bir xil ekanligini ko‘ramiz”, – deya qayd etadi.<sup>1</sup>

“Alpomish” dostonida marosimlarga xos aziz avliyolardan madad tilash motivi ham uchraydi. Binobarin, biror-bir marosimni tashkil etishdan oldin avval xudodan, so‘ngra aziz avliyolardan, nimaga sig‘inilayotgan bo‘lsa, o‘sha sohaning pirlaridan madad tilanadi. Unda Boboxon tog‘ida yolg‘iz qolib, Boychibor bilan boylovli qolgan Qorajon har ikkalasiga madad tilar ekan, avliyolarni shafe keltirib, iltijo qiladi. U o‘z yo‘qlovida barcha insonlarning otasi sanalgan hazrati Odam, Makka muazzamni barpo etgan payg‘ambar Ibrohim, uning o‘g‘li Ismoil, dinlarning chirog‘i Imomi A‘zam, Shayx Ahmad, Zinda pil, Imomi shafi, er Sulaymon, Toshkand mulkidan er bobo Zangi, saxiyning sardori Sayd Vaqqos, G‘avs bilan G‘iyos, haqning xaznachisi Xidiri Ilyos, Xo‘ja Hofiz Sherozi, hazrati Hyp, G‘avsul A‘zam vali, Xo‘ja Dobil, Akbar, Shohi Zinda, Erdoniyor, Xo‘jayi Zumrati, Xo‘jayi Ahror, Erxo‘ja mozor kabi ulug‘larning nomini tilga oladi va deydi:

Avvali oblodan, duyumi pirdan,  
Miskin umid qilar Aliday sherdan.  
Lochinning qanoti bo‘lmasin mayib,  
Baloga sabr etgan hazrati Ayub,  
Uch yuz oltmish o‘ttan mardonni g‘oyib,  
Kam bandang maqsadin tilar mug‘oyib.  
Oting rahmon, qaytar shayton yo‘lidan.  
Xoliqsan, karimsan, qahringdan qutqar,  
Gunohkor bandaman, maqsadga yetkar.<sup>2</sup>

Dostonda tush ta‘biriga bag‘ishlangan qadimgi marosimlar ham keltirilganligini J.Eshonqulov alohida ta‘kidlab o‘tadi. Buni olim xalq orasida mavjud bo‘lgan “Yaxshi tushga ham, yomonga tushga ham sadaqa berish kerak”, “Tush ko‘rilganidek bo‘ladi” kabi maqollar qadimda biror-bir tushni ta‘bir qilish uchun maxsus marosim uyushtirilgani, buqa yoki qo‘ylar so‘yib ziyofat berilgani, atrofdagi eng yaxshi ta‘bircilar taklif etilib, musoboqalar tashkil qilinganidan dalolat berishi orqali asoslaydi.<sup>3</sup> Darhaqiqat, bunga ishoralar ko‘pgina ertak va dostonlarda ham uchraydi. Jumladan, “Alpomish” dostonida Boyburi va Boysariga farzandli bo‘lishlari tushda ayon bo‘lgach, bu xosiyatli tushdan xursand bo‘lgan aka-uka yurtga ziyofat beradi. Ularning tushiga Shohimardon pir kirib, bolali bo‘lishlarini aytadi. “Bu so‘zni eshitib, biylarning juda vaqti xush bo‘lib, “tilaganimiz qabul bo‘ldi” deb, ko‘ngli to‘lib, mindi bedov otdi, qistab mazgilga qarab yo‘l tortdi. Vaqti xushligi bilan uch kecha-kundo‘z yo‘l yurib Boysun-Qo‘ng‘irot elatiga yetdi. Vaqti xushligiga haloyiqni, elni yig‘ib, qirq kecha-yu, qirq kundo‘z to‘y-tomosho berib yotdi”.<sup>4</sup>

Xulosa qilib aytganda, xalqimizning madaniy dunyoqarashi, maishiy-kundalik turmush tarzi bilan bog‘liq bunday etnografik ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan badiiy motivlar quyidagi jihatlariga ko‘ra tahlil va tadqiq etilishi lozim:

1. Real-etnografik mazmuni va ma‘nosi (ya‘ni, tasvirlangan marosim va urf-odatning kundalik hayotning qaysi vaqtga to‘g‘ri kelishi mumkinligi) ochib beriladi.

2. Estetik mazmuni va ma‘nosi (ularning epik kontekstdagi o‘rni, epik tizim bilan o‘zaro bog‘liqligi, sujetdagi roli va boshqalar) e‘tiborga olinadi.

3. Ushbu motivlarda milliy ong va xalq madaniyatining ma‘lum bir turi ifoda etiladi.

Marosim bilan bog‘liq motivlar qahramonlik dostonlarining asosiy sujet mavzularidan biridir. Ushbu mavzular arxaik epos sujet strukturasi tashkil qiladi va epik ijodkorlikning barcha bosqichlarini qamrab olgan.

<sup>1</sup> Эшонкул Ж. Эпик тафаккур тадрижи. – Тошкент: Фан, 2006. – Б.5.

<sup>2</sup> Алпомиш. – Б.136-137.

<sup>3</sup> Эшонкул Ж. Туш, маросим ва эпос. // Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. – Тошкент: Фан, 2011. – Б.87.

<sup>4</sup> Алпомиш. – Б.68.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алпомиш. Достон. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчилар Ҳ.Зарифов ва Т.Мирзаев. – Т.: Шарқ, 1998. – 400 б.
2. Путилов Б. Эпос и обряд // Фольклор и этнография. – Л.: Наука, 1974. – С.76.
3. Эшонкул Ж. Эпик тафаккур тадрижи. – Т.: Фан, 2006. – Б.5.
4. Саримсоқов Б. Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. 1-том. – Т.: Фан, 1988. – Б. 144-145.
5. Эшонкул Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. – Т.: Фан, 2011. – Б.93-94
6. Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: Фан, 2004. – 120 б.
7. Uraeva, D. S., Sharipova, M. B., Zaripova, R. I., & Nizomova, S. S. (2020). THE EXPRESSION OF THE NATIONAL TRADITIONS AND BELIEFS IN UZBEK PHRASEOLOGICAL UNITS. Theoretical & Applied Science, (6), 469-472.
8. Sharipova M. B., Nizomova S. S. THE ARTISTIC IMAGE OF THE IMAGE OF "WATER" IN THE POEM //УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА. – 2018. – №. 11. – С. 75.
9. Vaxshilloevna M. S., Shuhratovna M. S. Description and interpretation of wedding customs in the epic " Alpomish" //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 11.
10. Maxbuba Vaxshilloevna Sharipova, Kamola Ravshan Qizi Salimova "ALPOMISH" DOSTONIDA "KAMPIR O'LDI" MAROSIMI TASVIRI // Scientific progress. 2021. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/alpomish-dostonida-kampir-o-ldi-marosimi-tasviri> (дата обращения: 22.12.2021).
11. Maxbuba Vaxshilloevna Sharipova, Gulasal Shavkat Qizi Farmonova NIKOHDAN SO'NG ADO ETILADIGAN URF-ODATLAR TASVIRI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) // Scientific progress. 2021. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nikohdan-so-ng-ado-etiladigan-urf-odatlar-tasviri-alpomish-dostoni-misolida> (дата обращения: 22.12.2021).
12. Шарипова М. Б. НАЦИОНАЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ НА ПРИМЕРЕ ЭПОСА «АЛПОМИШ» //ББК 74.48 Р 76. – С. 253.
13. Шарипова М. Б., Муродова Ш. Ш. ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРЯДОВ В ЭПОСЕ «АЛПОМИШ» //Научный журнал. – 2020. – №. 9. – С. 32-34.

### ALPOMISH DOSTONI EPOSINING ASOSIY TENDENSIYALARI

**Xakimova Maxsudaxon G'ofurjon qizi**  
**Farg'ona davlat universiteti**  
**1-bosqich tayanch doktoranti.**  
**E-mail: [ulugbekmahsuda@gmail.com](mailto:ulugbekmahsuda@gmail.com)**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alpomish dostonining tili, doston dialekti, arxaik so'zlar, dostonda qo'llanilgan badiiy tasvir vositalari tahlilga tortilgan. Shuningdek, Dostonda etimologik jihatdan ko'proq o'z qatlamga mansub lug'aviy birliklar, shuningdek, o'zlashgan qatlamga mansub lug'aviy birliklarning o'zaro ma'nodoshlik hosil qilganligi kuzatilgan.

**Аннотация:** В данной статье анализируются язык саги об Алпомиш, диалект саги, архаические слова, а также средства художественного изображения, использованные в саге. Также замечено, что в Достане этимологически лексические единицы, относящиеся к своему слою, а также лексические единицы, принадлежащие к ассимилируемому слою, образуют взаимное значение.

**Abstract:** In this article, the language of the Alpomish saga, the dialect of the saga, archaic words, and the means of artistic representation used in the saga are analyzed. Also, it was